



## O'QUVCHILARGA FOLKLOR MUSIQANI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI

**Muallif:** Nargiza Karimova Dusboyevna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi musiqa fani metodisti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14408432>

### ANNOTATSIYA

Folklor musiqasi, har bir millatning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning tarixiy, madaniy va ruhiy hayotini aks ettiradi. O'quvchilarga folklor musiqasini o'rgatish jarayoni nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ularning madaniy va tarixiy buzuvchiliklarini ham anglashlariga yordam beradi. Ushbu maqolada folklor musiqasini o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan samarali usullar va metodlar haqida gaplashamiz. O'quvchilarga folklor musiqasining tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari va turli xil janrlari haqida ma'lumot berish muhimdir. Bu, ularga musiqaning qanday shakllanganini va uning madaniyatdagi o'rnini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** folklor, musiqa o'qitish usullari, interaktiv metod, musiqiy savodxonlik, pedagogika, vokal, interaktiv ta'lim.

Folklor termini inglizcha “folk” – “xalq” va “lore” – “donolik” so'zlaridan yasalgan bo'lib, xalq donoligi, donishmandligi, hunarmandligi, san'atkorligi ma'nolarini bildiradi. Bu termin ilk marotaba 1846 yilda Vilyam Toms tomonidan ilgari surilgan va shundan boshlab xalqaro miqyosda o'zlashtirilib kelinadi. Folklorni fan sifatida o'rganish XVII asrda Angliya universitetlarida yo'lga qo'yilgan. 1860-1870 yillarga kelib, Rossiya universitetlarida ham folklor fan sifatida o'rganila boshlandi.

Folklor qadimiy so'z san'ati sifatida yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning ertak, doston, maqol, qo'shiq, topishmoq singari xilma-xil janrlari shakllangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt-zamon e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, shu sababli u yoki bu janr tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o'sha qadimiylik izlari saqlanib qolgan.

Folklorda og'zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzidir. Chunki u ham yozuv kashf qilinmagan uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz turmushining, dunyoqarashi va e'tiqodining, kurashi va mag'lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. Folklor xotira manbaidan, xotiraning og'izdan og'izga o'tib yurishidan tug'ilgan. Folklor musiqa asari og'zaki aytiladi, kuylanadi, badiiy adabiyot esa faqatgina o'qiladi. Folklor asari og'izdan-og'izga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan har qanaqa o'zgarishga uchramasin, bu hol uning g'oyaviy-badiiy va estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki, folklorning ijodkori xalqdir.

Folklor musiqasi 4-6-7-sinf musiqa darsligida bir nechta mavzularda berilgan bo'lib, amaliy va nazariy masg'ulotlari o'qituvchidan katta musiqiy malaka va o'qitish

uslubiyatini talab etadi. Masalan 4-sinf musiqa savodxonligi darsligida “Bizdan sizga kim kerak”, 6-7-sinf musiqa darsligida “Yallama-yorim”, “Kim oladi shuginani-yo”, “Bo‘yi-bo‘yi” kabi bir nechta xalq qo‘shiqlari berilgan. Shu bilan birga o‘qituvchidan o‘quv manbalarini to‘g‘ri va aniq rejalashtirishini, mashg‘ulotlar o‘tishni yaxshi amalga oshirish, o‘rgatiladigan asarlarni har bir bosqich o‘quvchilari iqtidoriga mos ravishda tanlab olishni talab qiladi. Mashg‘ulotlarda o‘tiladigan folklor musiqa asarlari yuzasidan, folklor, uning janrlari, tarixiy kelib chiqishi, o‘rganilish tarixiga doir ma‘ruza matnlarini tayyorlashda oddiy tildan foydalanib musiqaga xos qadimiy termin (atamalar)larning har biriga izoh berishga alohida ahamiyat qaratishi lozim. Birinchi darslarda o‘quvchilarda folklor musiqa san‘ati ijrochiligiga ko‘nikma hosil qilish uchun, xalq orasida ommalashgan folklor qo‘shiqlardan tanlab o‘rgatilishi mumkin. Folklor musiqa asarlarini bir joyda turib, xor yoki vokal asarlarini kuylagandek ijro etilmaydi. Ular qo‘shiq, raqs, sahna harakatlari bilan bir vaqtda olib boriladi. Shuning uchun har bir folklor asarini o‘rgatishdan oldin 5-10 daqiqa asar haqida, uning ma‘nosini, folklorning qaysi janriga mansubligini, sahna harakatlarini talabalarga tushintirib beriladi. Keyin esa asar o‘qituvchi tomonidan ijro etib beriladi. Xor, vokal mashg‘ulotlari kabi 5-10 daqiqa ovoz sozlash mashqlari olib boriladi. Shu bilan birgalikda 5-10 daqiqa davomida sahna harakatlari, ya‘ni engil gimnastik mashqlari olib boriladi. Bunda qarsakka alohida e‘tibor qaratish lozim. Qarsak folklor musiqa asarini ijro etishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Qarsaklar uch turga: tez qarsak, o‘rtacha hamda og‘ir qarsaklarga bo‘linadi. Qay biridan foydalanish asarning tuzilishi va xarakteriga bog‘liqdir.

Ovoz qizitish va badan qizitish (gimnastik) mashqlaridan keyin yangi asar o‘rganiladi. O‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida guruh talabalari mavzularning o‘tilishiga qarab, mashg‘ulotlarda olgan nazariy bilimlarini amaliy darslar bilan bog‘lab olib borishi va o‘z ko‘nikma, malakalarini doimiy mustahkamlab borishlari nazarda tutiladi. Har bir folklor musiqa asari o‘rganib bo‘linganidan keyin sinov darslari reyting asosida o‘tkazilib boriladi. Bunda har bir o‘quvchining o‘rganilgan asarni qay darajada o‘zlashtirganligi aniqlanib, baholab boriladi. Shu tariqa yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan qo‘shimcha yakka mashg‘ulotlar o‘tkazish mo‘ljallanadi. Sababi, folklor asarlarining ko‘pchiligi asosan yakka xonanda ijrosida kuylanib, asarning naqoratida jamoa jo‘r bo‘lib turadi.

Guruhlar bilan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar har tomonlama tezkorlik, xushchaqchaqlik va ijodiy tarzda bo‘lishi, bunda o‘rgatilgan asarni talaba qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirib boriladi. Yangi o‘tiladigan folklor asarlarni izohlash, maslahat va tushuntirishlar olib borish, o‘tiladigan asarlarni yangilab borish, taqriz va tahlil qilib borish ko‘zda tutiladi.

Yuqorida aytilganidek, har qanday ruhiy holatda va har qanday shart-sharoitda ham o‘qituvchi amaliy darsga ko‘tarinki ruhda, ijrochilik kayfiyatida kirib kelmog‘i va tez fursatda o‘quvchilarni “kuylash”ga tayyorlamog‘i zarur. Chunki ana shu ruhiyat va ko‘tarinki kayfiyat o‘qituvchidan o‘quvchilarga ko‘chadi va ular o‘tiladigan hamda o‘rganiladigan asarni tez va puxta o‘rganadilar.

Raqs mashg‘ulotlari: Folklor raqslarini o‘rgatish, o‘quvchilarga musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ovozli o‘yinlar: Musiqa va harakatlarni birlashtirgan o‘yinlar o‘quvchilarning e‘tiborini jalb etadi.

Interaktiv ta'lim usullari

O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish zarur. Bu usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Jamoaviy loyihalar: O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, folklor musiqasiga oid tadqiqotlar o'tkazish va natijalarni taqdim etish.

Mashg'ulotlar va konsertlar: O'quvchilarni o'z ijodlarini namoyish etishga undash, bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Texnologiyadan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash, folklor musiqasini o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

Onlayn resurslar: Musiqiy qo'shiqlar, videolar va o'quv materiallarini onlayn platformalarda foydalanish.

Mobil ilovalar: Musiqa o'rgatish uchun mo'ljallangan ilovalar yordamida o'quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Madaniy almashinuv o'quvchilarni boshqa madaniyatlar bilan tanishtirish, ularning folklor musiqasiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu jarayon: Xalqaro musiqiy tadbirlar: O'quvchilarni xalqaro musiqiy festivallarga yoki tadbirlarga jalb etish.

Madaniy Almashinuv dasturlari: boshqa mamlakatlardan kelgan o'quvchilar bilan musiqiy almashinuv.

Folklor musiqasini o'rgatish jarayoni, o'quvchilarning madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Yuqorida ta'kidlangan usullar va metodlar, o'quvchilarga folklor musiqasini o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat musiqani o'rganadi, balki o'z millatining madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishadilar.

Folklor musiqa o'qitish metodikasi fanini o'rganish orqali o'quvchilar qadimiy urf-odatlarimiz, udumlarimiz, mehnat-marosim qo'shiqlari va kuylariga havas, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalanadi va milliy musiqa san'atimizni chuqur, mukammal o'rganadi.

Folklor musiqa san'ati o'qitish uslubiyatini o'rganish o'quvchilarda milliy musiqaga, milliy qadriyatlarga muhabbat uyg'otadi. Uning asosiy maqsadi folklor musiqa ijrochiligining taraqqiy etgan turi hisoblangan qo'shiq kuylashga ko'nikma hosil qiladi va o'zbek qo'shiqchilik san'atining yaratilishi, mumtoz musiqaning paydo bo'lishini o'rgatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qurbonov S.X. Folklor musiqa o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma).

Rahmonov A. "O'zbek folklor musiqasi". Folklor va an'anaviy musiqaning nazariyasi. 2020.

Murodov Sh. "Musiqa ta'limi va uning innovatsion usullari". Musiqa ta'limi metodikasi. 2021.

Abdullayeva M. "Xalq musiqasi va uning tarixi". Xalq musiqasi an'analari. 2019.